



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 28-mart

VII-8-42-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

### **“O‘zbekiston - 2030” strategiyasining ijrosi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan tuman hokimining o‘rinbosari – Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i S.Djumayevaning hisoboti to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni hamda 2024-yil 21-fevraldagagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-son Farmonining ijrosini ta’minlash, bu borada deputatlik va jamoatchilik nazoratini olib borish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining yettinchi chaqiriq, sakkizinch sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

1. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasining ijrosi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan tuman hokimining o‘rinbosari – Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i S.Djumayevaning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (N.Jo‘lmatov, S.Djumayeva) bilan birgalikda tuman bo‘yicha 18 nafar og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan turar-joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joylar bilan ta’minlash choralarini ko‘rsin.
3. Tuman hokimining o‘rinbosari – Oila va xotin-qizlar bo‘limi (S.Djumayeva), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi E.Raximov bilan birgalikda xotin-qizlarni kasb-hunarga o‘qitish va ularning bandligini ta’minlash prognoz ko‘rsatkichlariga so‘zsiz erishishga qaratilgan chora- tadbirlarni amalga oshirsin;

-har oy yakuni bilan prognoz ko‘rsatkichlar ijrosi yuzasidan barcha mahallalardagi hokim yordamchilari va xotin-qizlar faollarining hisobotlarini eshitib borish tizimini yo‘lga qo‘ysin.

5. Tuman hokimining o‘rinbosari – Oila va xotin-qizlar bo‘limi (S.Djumayeva) hamda tegishli tashkilotlar bilan birgalikda oila, xotin-qizlar va gender tenglik, shu jumladan uchinchi shaxslar tomonidan oilaviy munosabatlarga aralashib, er va xotin orasida nizo chiqarilishini oldini olish masalalari bo‘yicha aholi o‘rtasida tushuntirish ishlari va targ‘ibot tadbirlari olib borish;

xorijda ishslashning qonuniy asoslari hamda odam savdosiga qarshi kurashishning mazmun-mohiyatini xotin-qizlarga tushuntirish maqsadida “Odam savdosi — davr muammosi” targ‘ibot tadbirlarini amalga oshirish;

tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarga amaliy yordam ko‘rsatish sohalarida faoliyat olib borayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish choralarini ko‘rish;

profilaktik hisobda turgan xotin-qizlar bilan yakka tartibdagi profilaktik tadbirlar hamda ijtimoiy-huquqiy qo‘llab-quvvatlash ishlarini amalga oshirish;

“Ayollar daftari”ga kiritilgan kasb-hunarga ega bo‘limgan ishsiz xotin-qizlarni kasb-hunarga o‘qitish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish choralarini ko‘rsin.

6. Xalq deputatlari tuman Kengashining ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Mirzaxonova) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-401-son qarori bilan belgilangan vazifalar asosida xotin-qizlarni kasb-hunarga o‘qitish va ularning bandligini ta’minalash prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi bo‘yicha mutasaddi tumna tashkilotlari rahbarlarining hisobotlarini eshitish bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga taklif kiritsin.

7. Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tумани Kengashi deputatlariga o‘z hududlarida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ijrosini mahallalar kesimida amalga oshirilishi bo‘yicha har oyda nazorat tadbirlarini o‘tkazish, har chorakda tuman hokimining o‘rinbosarlari hamda mas’ul ijrochilarining hisobotlarini eshitish va tanqidiy muhokama qilib borish tavsiya etilsin.

8. Kattaqo‘rg‘on tuman hokimligi matbuot xizmati (J.Safarov), “Kattaqo‘rg‘on kecha va bugun” gazetasi bosh muharriri (O‘.Usmonov)ga muntazam ravishda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarning mazmun-mohiyati hamda belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni aholiga xolis va to‘laqonli yetkazish tavsiya etilsin.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (D.Mirzaxonova) va tuman hokimining o'rinnbosarlari (N.Jo'lmatov, S.Djumayeva) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV  
JAMSHID  
TULKINOVICH